

"OQ KEMA" ASARIDA BOLA OBRAZI

Yunusova Nazokat Nodirjon qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada butun turkiy xalqlarning faxr-u iftixoriga aylangan adib Chingiz Aytmatov qalamiga mansub "Oq kema" qissasi asosida bola obrazi, uning adabiy maqsadga yo'naltirilgan vazifasi, muallifning obraz yaratish mahorati, bola ruhiyati, uning ichki dunyosi va tashqi muhit o'rtasidagi ziddiyat kabi jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar. Bola, orzu, oq kema, ruhiyat, portret, qahramonning ichki olami.

"BEYAZ GEMI" ESERİNDEKİ ÇOCUK İMAJİ

Yunusova Nazokat Nodirjon kızı,
Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi

Özet. Bu makalede, tüm Türk halklarının gururu olan yazar Cengiz Aytmatov'un "Beyaz Gemi" öyküsünden yola çıkılarak çocuk imgesi, onun edebi amacı, yazarın imge yaratma becerisi, çocuğun ruhu, iç dünyası ile dış çevre arasındaki çatışma ele alınmaktadır.

Anahtar kelimeler. Çocuk, rüya, beyaz gemi, ruh, portre, kahramanın iç dünyası.

THE IMAGE OF A CHILD IN THE WORK "WHITE SHIP"

Yunusova Nazokat Nodirjon qizi,
Student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Abstract. This article, based on the story "The White Ship" by the writer Chingiz Aitmatov, who became the pride of all Turkic peoples, sheds light on such aspects as the image of a child, his literary task, the author's skill in creating an image, the psyche of a child, the conflict between his inner world and the external environment.

Key words: child, dream, white ship, psyche, portrait, the inner world of the hero.

ОБРАЗ РЕБЁНКА В ПРОИЗВЕДЕНИИ «БЕЛЫЙ КОРАБЛЬ»

Юнусова Назокат Нодиржон кызы,
Студентка Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В данной статье рассматривается образ ребенка, его литературное предназначение, мастерство автора в создании образа, психика ребенка, конфликт между его внутренним миром и внешней средой на примере повести «Белый пароход» Чингиза Айтматова – писателя, ставшего гордостью всех тюркских народов.

Ключевые слова. Ребенок, сон, белый пароход, психика, портрет, внутренний мир героя.

Ma'lumki, har qanday badiiy asar tahlilga tortilar ekan bundan muallif asarlariga ilmiy mezonlar asosida, xolislik bilan baho berish va nazariy xulosalar chiqarish maqsadi ko'zlanadi. Ch.Aytmatovning badiiy jihatdan eng sara asarlardan biri hisoblangan "Oq kema" qissasi o'z davridayoq zamondoshlarining e'tirofiga sazovor bo'lgan va bahosini olgan. Qissada insoniy go'zallik, ezgulik va hayot ziddiyatlari, tabiat va inson muammolari teran tadqiq etiladi. "Oq kema" kinofilmi ham asar kabi shuhrat qozondi. Ushbu asar ilk bor 1970-yilda "Новый мир" jurnalida chop etilgan. Asar bir necha tilga, jumladan, o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. Asarda bir bolaning

o'y-xayollari, otasiga bo'lgan sog'inchi, uning baliqqa aylanib qolishni istashi-yu, oq kemaga – otasining huzuriga borib qolishga bo'lgan ishtiyoqi bayon etiladi. Asarda bolaning o'y-fikrlari shunchalik hissiyotga boy tarzda tasvirlanadiki, go'yo o'zimizni o'sha vaziyatga tushib qolgandek his etamiz. Hali voyaga yetmagan, beg'ubor qalbli bolaning tushunib ulgurmagan nohaqliklari haqida yoritiladi. Bolaning o'zi uchun yaratilgan mo'jaz va yaxshiliklarga boy ertagi kattalarnikidan mutlaqo farq qiladi. Asarda bola o'zining dunyosida yashaydi. 6-7 yoshli bolakayning bola bo'lib topa olmagan baxti, yaqinlaridan ko'ra olmagan mehri, oppoq orzulari, beg'ubor qalbi va mana shu beg'uborlikning toptalishida bolaning fojiasi aks ettirilgan. Asarni o'qir ekanmiz, dastlab, bolaning "do'stlari" bilan tanishamiz: *toshlar, hayvonlar, durbin portfel...* Keyinchalik esa uning yolg'izligi, yaqin insonlari ichida begonaligi ayon bo'ladi. U orzulari ushalmaligini bilsa-da orzu qilishdan to'xtamaydi.

Asarda muallif portretning imkoniyatlaridan samarali foydalangan. Qahramonlarining portreti go'yoki ularning ruhiy qiyofasini tasvirlagandik, ularning ichki olamini, o'ziga va o'zgalarga munosabatini ifodalagandik bo'ladi. Boshqa qo'shimcha ta'rif va tavsiflarga ehtiyoj sezilmaydi. Bola... negadir unga hech kim ismi bilan murojaat qilmaydi. Uning ismi deyarli muhim emasdik. Bolakayga yozuvchi ism berishni ma'qul ko'rmagan, balki, hayoti shunday dard-alamlarga, qayg'u tashvishlarga to'la bo'lsa-da, mitti yurakchasi mehr-u muhabbatga, ezgulikka limmolim bo'lgan murg'ak qalb egalarining umumlashma obrazi bo'lishini istagandir.

U o'zining borligi sezilib-sezilmaydigan kattalarning zididdiyatga to'la olamida o'zi uchun alohida "*dunyo*" yaratib yashaydi. U kattalar ilg'amagan har qanday kichik quvonchdan o'zi uchun olam shodliklar yaratib yashaydi. Ammo bulardan hayqirmaydi. Shodliklarini ham o'z "olam"ida izhor etadi. "*Portfel*" asardagi shunday maqsadga xizmat muhim qiluvchi detallardan biridir. Adib bola va uning atrofidagi kishilarning ma'naviy qiyofasini shu detal orqali yanada ochib beradi:

"... *Seydahmad bugun ertalabdan o'ringa tushib ketdi. Orqadan kelayotgan qadam tovushini eshitib Seydahmad qayrildi, ko'ylagining yengi bilan yuzini artidi.*

- *Nimaga kelyapsan? Meni chaqirishyaptimi?*

- *Yo'q. Portfel oldim. Mana, bobom olib berdi. Men maktabga boraman.*

- *Shunga shunchalik chopib keldingmi? - Seydahmad xoxolab kuldi.*

- *Mo'min boboning esi kirarli-chiqarli bo'lib qolgan, - u barmog'ini chekkasiga bosib aylantirdi, - sen ham shunaqa chog'i. Qani, qanaqa portfel? U qulfchasini shaqillatib portfelini u qo'lidan bu qo'lga oldi-da, kallasini likkillatganicha kulimsirab qaytarib berdi*" [2, 217].

Seydahmad va bolaning muloqoti keltirilgan ushbu parchadan anglashiladi, bola shaxsiy buyum orqali o'zini e'tirof etilgandik his etdi, unda ilm olishga qiziqish yuqori, ammo u yashaydigan joyda bunga imkoniyat yetarli emasligini yaqqol sezish mumkin. Xuddi shu tasvir bola va O'rozqul o'rtasidagi muloqotda boshqacha kayfiyatda sodir bo'ladi.

"... *Bola qo'lidagi portfelni silkitib ro'parasidan chopqillab chiqib qolganda bu tasodifdan uning otdan uchib ketishiga sal qoldi:*

- *O'razqul amaki portfelimni ko'ring. Men maktabga boraman. Mana mening portfelim.*

- *Obbo, falokat-e... O'razqul seskanib jilovini tortarkan, koyiy boshladi.*

U bolaga qizargan, shishgan, shirakayf ko'zlarini tikdi:

- *Nima qilib yuribsan, qayoqdan kelyapsan?*

- *Uyga ketyapman. Portfelimga qarang, uni Seydahmadga ko'rsatib kelyapman, - dedi bola ming'irlab*

- *Mayli, o'ynayver, - to'ng'illadi O'razqul va egarda omonatgina tebranib yo'lida davom etdi* [2, 219].

O'razqul o'z taqdiridan ranjib yurgan va xudo uni farzand dog'ida kuydirib boshqalarga saxiylik bilan beshta-o'ntalab bola berib qo'ygan bir paytda, bu ahmoqona portfel-u, ota-nasi tashlab ketgan, xotiniga jiyan bo'lmish bu bola bilan qanchalik ishi bor.

Yuqorida ta'kidlaganimizdik, bolaning ichki olamida ikki xil dunyo bor edi. Biri tashqi olam bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'z yaqinlari tomonidan toptalgan qalbi bo'lsa, ikkinchisi ichki olamida beg'ubor xayolatlari bilan ko'ngliga taskin beradigan dunyo edi. Yuqoridagi parcha aynan

ikkinchi dunyosi xususida. Bilamizki, uning ota-onasi go'dakligida tashlab ketgan, shu bois uning fikrlashi, tasavvurlari va hayolotlari boshqalarnikidan o'zgacha edi. U Issiqko'lga oq kema har safar yaqinlashganda dadasi uni bir kuni shu kemada olib ketishiga ishonadi. Suvga tushganida baliqqa aylanishi yoki oddiy bulutlarni ko'rganda ular go'yoki bolaning fikrlarini o'qiy olishi, ya'ni uning uzoqlarga ketish orzularini anglab turganligi, bir so'z bilan aytganda, ozodlikka intilishi ichki dunyosida yaratgan orzulari hosilasi edi.

Xulosa shuki, asarda bola ruhiyatidagi o'zgarishlar orzular bevosita u yashayotgan muhit bilan bog'liq tarzda yoritilgan. Uning orzusi jamiyatdagi boshqa bolalar orzularidan keskin farq qiladi. Bu uning yolg'iz katta bo'lishi, ota-onasining uzoqda ekanligi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Muallif esa bir toza qalbli bolalar nomidan insoniyatga murojaat qilayotgandik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: "Akademnashr", 2013. B. 412
2. . Chingiz Aytmatov. Oq Kema. Qissa. (Tarjimon. Asil Rashidov). – Toshkent: "O'qituvchi", 2012. B.128
3. Тўхта Бобоев. Адабиётшunoslik асослари. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2001, В.559
4. <https://tafakkur.net/chingiz-aytmatov.haqida>